

UCHQUN NAZAROVNING „CHAYON YILI“ ROMANIDA QO‘LLANILGAN METONIMIYALAR VA ULARNING SEMANTIK TAHLILI

Chamangul Yusubova

Urganch davlat universiteti, tayanch doktorant

Metonimiya bu bir predmet, narsa yoki hodisa nomining ikkinchisiga mantiqiy bog‘lanish asosida ko‘chishishiga aytiladi. Metonimiya bu shahsni, narsani, voqea-hodisani boshqacha nomlash degani, bu nom ko‘chishi joy, vaqt, narsa, sabab va boshqa munosabatlarga asoslanadi. Masalan, *Schlaupkopf*-ayyor odamga nisbatan, *die ganze Stadt* (*butun shahar*)-shahar aholisiga nisbatan qo‘llaniladi. Metonimiyaning eng ko‘p tarqalgan turlaridan biri sinekdoxa. Sinekdoxani ikki ko‘rinishda farqlash mumkin: qism aytish bilan butunni yoki butunni aytish bilan qism tushuniladi. Masalan, *Er ist ein kluger Kopf* (*U aqlli inson.*) Mazkur misolda „*ein kluger Kopf*“ „*aqlli bosh*“ ifodasida aqlli insonga nisbatan qo‘llaniladi. *Mein Fuß wird dein Haus nie betreten.* (*Uyinga boshqa qadam qo‘ymayman*). „*Mein Fuß*“ so‘zi shahs, inson o‘rnida qo‘llanilyapdi.

Sinekdoxaning yana bir turi, butun aytilish bilan qismni nazarda tutishdir.

Masalan, *die ganze Welt klatschte Beifall* (*Butun dunyo qarsak chaldi*). „*Die ganze Welt*“ „*butun dunyo*“ birikmasi ostida „*bir guruh odamlar*“ nazarda tutilyapdi.⁶⁵ Quyida Uchqun Nazarovning „Chayon yili“ romanida qo‘llanilgan metonimiyalar va ularning tahlili keltiriladi. Asarni o‘zbek tilidan nemis tiliga Ingeborg Baldauf tarjima qilgan. Mazkur asardan, sinekdoxaga oid ko‘plab misollarni uchratish mumkin. Quyida ayrimlarining tahliliga to‘htalamiz.

“Shuncha o‘rtoqlarim urushda bo‘lsa-yu, men buyoqda qanaqa qilib *bosh ko‘tarib yuraman?*”-dedi Mas‘ud zorlanib. (S. 40)

“Wenn so viele meiner Kameraden im Krieg sind, wie könnte ich da hier noch erhobenen Hauptes herumlaufen?” bettelte Masud. (S. 50)

“Bosh ko‘tarib yurmoq” iborasi-yuzi yorug‘, pok, halol bo‘lganligi uchun kishilar o‘rtasida bemalol, xijolat bo‘lmay, yerga qaramay yurmoq ma‘nosida qo‘llaniladi.⁶⁶ Ta‘na azosi boshni aytish bilan bu yerda insonni anglashimiz mumkin. Ya‘ni metonimiyaning sinekdoxa turiga mansub bo‘lib, qism o‘rnida butun tushuniladi. Butunning o‘rniga unga xos muhim va ko‘zga tashlanadigan birorta qismi aytiladi va bu ko‘pincha tas‘irchanlikni oshiradi.

“...Lan‘ati yalangoyoq!” (S.41)

“...Verdammt Barfüßler!” (S.51)

⁶⁵ A.Iskos, A. Lenkova, Deutsche Lexikologie, S.139

⁶⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, S.337

Metonimiya stilistik vositasining yana bir o'ziga hos ko'rinishlaridan birsi bu Bahuvrihilar. Bahuvrihilar aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlarning bir turi bo'lib, uning ostida inson shaxsi nomlanishi bilan bog'liq holda yasalgan qo'shma so'zlar tushuniladi. Yuqoridagi misolda yalangoyoq (Barfüßler) so'zi bechora, kambag'al insonga nisbatan qo'llanilgan. Bunday tasviriy bo'yoqdorlik til belgilarining ta'sir kuchi, ifoda qudratini oshishiga xizmat qiladi.

“O'sha sunda paypoqqa quda bo'ladimi?!” (S.41)

“Sollte er jetzt mit diesem Ölhandschuh Schwager sein?!” (S.51)

Keyingi misolimizda paypoqni aytish bilan insonni tushunish mumkin. Kiyimlar nomlari ostida shuni kiygan insonlar anglashiladi. Shunga o'xshash yana bir qator misollarni keltirish mumkin: Rotkäppchen (qizil shapkacha), Langohr (uzunquloq, eshak yoki quyonni tushunish mumkin). Bahuvrihilar bu aniqlovchili qo'shma so'zlar bo'lib, ular ifodalyotgan shahs, jonli mavjudot yoki narsaning muhim, unga xos bo'lgan va ko'zga tashlanadigan belgisini tasvirlab keladi.

„Ortiqcha *og'izni* qaysi oila xohlaydi?“ (S.54)

„Welche Familie wollte schon überzählige *Mäuler*?“ (S.67)

Og'izni aytish bilan insonni tushunish mumkin. Bu yerda ko'chimning ishlatilishi asardagi vaziyatni kitobxonga yanada ta'sirliroq bera olgan. Asar mazmuniga ko'ra, urush paytida ko'pchilik odamlarning kun kechirishi, qorin to'ydirishi qiyin bo'lib qolgan. Asar qahramoni Zahro biron oilaga kelin bo'lishini, u yerda agar turmush o'rtog'i urushga ketsa ortiqcha *og'iz* (ortiqcha yuk, boqimanda) sifatida qolishini nazarda tutyapdi.

“Ergash kosib yetti *og'iz* qashshoqqina oilaning kattasi bo'lib, o'ttizinchi yillar boshida quloq qilingan, arava-otidan, sigir-ulog'idan mahrum bo'lgan ekan;” (S.56)

“Meister Ergash hatte sieben hungrige *Mäuler* zu versorgen. In den dreißiger Jahren war er zum Kulaken erklärt worden und hatte seinen Wagen und sein Pferd, seine Kuh und sein Kalb verloren”. (S.69)

Bu gapda ham *og'iz* deganda oiladagi farzandlar nazarda tutilyapdi. Aynan bolalarga nisbatan *og'iz* so'zining ishlatilishi orqali asardagi obrazlilik oshgan. Tasviriy vositalar orqali asarda ifodalangan davr, shu vaqtdagi insonlar turmushidagi qiyin vaziyatlarni muallif o'ziga xos uslub bilan tasvirlay olgan.

“Qaynonasining yigirma kunlik ma'rakasiga ham bir hafta qoldi, hali qancha tashvish *boshida*.” (S.58)

“Bis zum zwanzigsten Todestag ihrer Schwiegermutter ist nur mehr eine Woche, da gibt es noch viel für sie zu tun.” (S. 71)

Mazkur misolda ham *bosh* so'zini aytish bilan asar qahramonlaridan biri Oynisaga ishora qilinyapdi.

“Eshitgan quloqqa xunuk” (S. 70)

“Es tut dem Ohr weh, das es hört.” (S.86)

Ta’na azosi *quloqni* aytish bilan *odam* tushunilyapdi. Odamlar bu haqda eshitib qolsa yahshi emasligi, uyat bo’lishi haqida aytilyapdi.

Metonimiyaning yana bir turlaridan biri joy nomining u yerdagi joylashgan insonlarga ko’chishi hisoblanadi. Uchqun Nazarovning „Chayon yili“ romanida mazkur turga oid misollarni ko’plab uchratish mumkin.

“Mening qo’limdan kelmaydi. Talaydi, hovlini boshiga ko’taradi” (S.41)

“Ich vermag das nicht. Die bringe ich um, die stellt den ganzen Hof auf den Kopf” (S.51)

Mazkur misolda joy nomining u yerda yashayotgan insonlarga ko’chayotganini ko’rish mumkin. Hovli u joyda istiqomat qiladigan oila, xizmatkorlar o’rnida kelgan. Keyingi gapda ham joy nomini aytish bilan u yerdagi mas’ul hodimlar nazarda tutilyapdi.

„Kolxoz deyarli daromad bermas edi“. (S. 56)

„Die Kolchose bezahlte kaum etwas“. (S. 69)

“Albatta, O’lmasning o’ziga bersa ham bo’lardi, u la’nati qizini yaxshi ko’rarkan, Murodxo’ja akaning etagini o’pardı...” (S.40)

“Natürlich hätte man sie ja auch Ölmas selber geben können, der verdammte Hund liebte seine Tochter schließlich, er hätte Murod Khojas Mantelsaum geküsst...” (S.51)

Kiyim bo’laklarining inson ta’na azolariga ko’chishi- bu metonimiyaning yana bir ko’rinishlaridan biri hisoblanadi. *Etak* (Mantelsaum statt Fuß)so’zi bu yerda *oyoq* ma’nosini anglatyapdi. Bu yerda yana hayvon nomlarining insonga ko’chish holatini ham kuzatish mumkin. *Lan’ati* so’zi nemis tiliga *der verdammte Hund* deb o’girilgan, *der Hund* bu *it*, *verdammte* bu *kimnidir qattiq so’kish*, *unga yomonlik tilashda* ishlatiladi. *Der verdammte Hund -lan’ati*, *yaramas* kabi ma’nolarda kelgan. Asar qahramoni O’lmasga nisbatan *yaramas*, *lan’ati* it obrazini ishlatishiga sabab, Murodxo’ja aka O’lmasni itfe’l deya tasvirlayapdi. Bu tasviriy vositalar orqali asar qahramonlarining ichki kechinmalarini, ularning o’y-hayollarini yanada aniqroq ko’z oldimizga olib kelish mumkin.

„Buni ko’rgan odamlar yana kimlarningdir yostig’i quriganı, kimlarningdir xonadoni qarovsiz qolganini guvohi bo’lishadi“ (S. 76)

„Die Leute, die es sehen, werden Zeuge, dass einmal mehr das Ehelager von Menschen erkaltet ist und eine Familie ihren Ernährer verloren hat.“ (S. 93)

Yostig’i qurimoq iborasi *o’lmoq*, *vafot qilmoq* ma’nolarida keladi. Mazkur iborada ham mantiqiy bog’lanish asosida nom ko’chishi holati kuzatilyapdi. *Yostig’i qurimoq* bilan inson umrining so’lishi bu yerda o’hshatilyapdi.

„Qish bo‘yi sillasi qurigan, qancha jonlardan mahrum bo‘lib, talay qurbon va talafotlar evaziga arang yetib kelgan odamlar bahor nurlari bilan ko‘ngil chog‘lab, g‘imir-simir harakatga tushib ketishgan, ne hasratda asrab-qizg‘anib, ro‘zg‘ordan asrab qolgan bir hovuch don-dunni yerga sepish bilan ovora bo‘ladilar“. (S. 55)

„Die Menschen, denen der Winter die letzten Kräfte aufgezehrt und die er um so manchen lieben Verwandten gebracht hatte, die Menschen, die um den Preis vieler Opfer und tragischer Verluste gerade noch einmal davongekommen waren, diese Menschen schöpften wieder Mut in der Frühlingssonne. Sie wurden geschäftig und hatten zu tun, ihre letzte Handvoll Korn in die Erde zu säen“. (S. 68)

Mazkur misolda „jonlar“ deyilganda insonlar nazarda tutilyapdi, „ro‘zg‘ordan asrab qolgan“ ifodasida ham „ro‘zg‘or“ - oila va oila a‘zolariga nisbatan ishlatilyapdi.

Metonimiyalar til ifodalarining ta‘sirchanligini oshiradi. Ularga emotional bo‘yoqdorlik berishi mumkin. Ba‘zan metonimiyalar so‘z ma‘nolarining kengayishiga, ya‘ni yangi ma‘noli so‘zlar paydo bo‘lishiga ham olib keladi. Masalan, *Glas* so‘zi *idish* hamda *ichimlik* ma‘nosida qo‘llaniladi. Yoki *Schoß* so‘zi kiyimning bir bo‘lagi, *etak* ma‘nosida yoki *tizza* ma‘nolarida kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Iskos, A.Lenkova: “Deutsche Lexikologie”. 1970 y
2. E.Riesel, E.Schendels: “Deutsche Stislistik”. 1975 y.
3. Uchqun Nazarov: “Chayon yili”. 1990 y.
4. Uchqun Nazarov: “Das Jahr des Skorpions”. 2018
5. Duden Deutsches Universalwörterbuch. 2006